Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2025–2026 yillarga mo‘ljallangan Chora-tadbirlar dasturi loyihasiga

TUSHUNTIRISH XATI

I. Loyihani ishlab chiqish uchun asos

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–71-son Farmoni 1-ilovasi bilan tasdiqlangan ishlab chiqilishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar ro‘yxatining 5-bandida, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2025-2026 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturini ishlab chiqish bo‘yicha topshiriq belgilangan.

Mazkur topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2025–2026 yillarga mo‘ljallangan Chora-tadbirlar dasturi loyihasi ishlab chiqildi.

II. Loyihani qabul qilish zarurati

Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasi 5-moddasida har bir ishtirokchi davlat, o‘z huquqiy tizimining asosiy tamoyillariga muvofiq, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosatini asosiy yo‘nalishlarini belgilashi hamda bu borada zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozimligi qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni 6-moddasi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati davlat dasturlari va boshqa dasturlar asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Shunga asosan, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023-2024 yillar mo‘ljallangan davlat dasturi yakuniga yetganligi sababli, yangi 2025-2026 yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqish lozim.

Mazkur chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023-2024 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi tahlili (https://aca.uz/storage/6rLm8J0tmA4wlqW3LrVVDV4HdzSMBCmetaMjAyM18yMDI0X9CU0LDQstC70LDRgl_QtNCw0YHRgtGD0YDQuF_QuNC20YDQvtGB0Lhf0YHQsNC50YJf0YPRh9GD0L0ucGRm-.pdf), mamlakatda korrupsiya darajasini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar (https://aca.uz/storage/WY8ObPjgaahp6EPE7UapMNrGixt2jf meta0JzQuNC70LvQuNC5INCc0LDRitGA0YPQt9CwIDIwMjQucGRm-.pdf), korrupsiyaga qarshi kurashuvchi davlat organlarining hisobotlari (https://back.ach.gov.uz/media/legal/68d904a935aaeb0d90f1a7b4/file_47bf4735f0071a6466ca72ad.pdf https://aca.uz/storage/RqmwTntfrqCuv70brYhAiASIs2Xxqeeta0JDQs9C10L3RgtC70LjQuiAyMDI0INC50LjQuy5wZGY=-.pdf), ijtimoiy so‘rovnoma natijalari, xalqaro tashkilotlar tomonidan o‘tkazilgan tahlillar (https://aca.uz/storage/RqmwTntfrqCuv70brYhAiASIs2Xxqemeta0JDQs9C10L3RgtC70LjQuiAyMDI0INC50LjQuy5wZGY=-.pdf) va korrupsiyaga oid jinoyatchilik statistikasi ma’lumotlaridan foydalanildi.

Ushbu ma’lumot va tahlillarning davlat dasturini ishlab chiiqshda foydalanilganligi davlat dasturi loyihasi belgilangan bandlarida aks ettirildi.

III. Loyihasining mazmuni

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2025-2026 yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturida **7 ta** yo‘nalishda korrupsiyagi qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilanmoqda. Jumladan,

– har chorakda kamida 3 ta sohada korrupsiya xavf-xatarlarini aniqlash, korrupsiyaga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan o‘rganishlar o‘tkazish;

– korrupsiyaviy jinoyatlar statistikasini yuritishga mo‘ljallangan dasturiy ta’minot yaratish;

– davlat organlari va tashkilotlari tizimida xodimlarni “halollikka tekshirish” tartiblarini belgilash;

– ochiqlik indeksini barcha tuman-shahar hokimliklarida joriy etish;

– davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil qilish bo‘yicha “Xavf-tahlil markazi”ni tashkil etish;

– davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, shu jumladan ochiq e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar ro‘yxatini yanada kengaytirish kabi bir qator muhim vazifalar belgilanmoqda.

V. Loyihani amalga oshirishning samaradorlik ko‘rsatkichlari

Loyihani amalga oshirishning ta’sir ko‘rsatkichlari (impact):

- ✓ “Transparency International” xalqaro tashkiloti tomonidan e’lon qilingan Korrupsiyani qabul qilish indeksida O‘zbekistonning o‘rni **4 pog‘onaga** yaxshilash;
- ✓ Aholi o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra mamlakatda korrupsiya darajasi “yuqori” deb hisoblovchi respondentlar ulushini **15 foizga** kamaytirish;
- ✓ Davlat xaridlarida raqobatli usullardan foydalanish darajasi (bunda yagona yetkazib beruvchidan va monopol xaridlar inobatga olinmaydi) **70 foizga** yetkazish;
- ✓ Mansabdor shaxslar tomonidan xabar qilingan manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini qonunchilik hujjatlariga muvofiq tartibda **100 foizga** hal etish.

Loyihani amalga oshirishning natija ko‘rsatkichlari (outcome):

- ✓ «Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi» elektron platformasining maxsus o‘quv kurslarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha har yil **100 ming nafar** davlat xizmatchilarining malakasini oshirish;
- ✓ Ochiqlik indeksidagi «yashil» toifadagi davlat organlarining ulushini **67 foizga** yetkazish;
- ✓ **208 ta** tuman-shahar hokimliklarining ochiqlik faoliyatini “Ochiqlik indeksi” metodikasi orqali baholash;
- ✓ Davlat xizmatchilari uchun halollik standartlari (etika) va korrupsiyaga qarshi kurashish choralari bo‘yicha har yili **80 ta** targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish (treninglar, uchrashuv, konferensiya va seminarlar)

- ✓ O‘zbekiston biznesining korrupsiyaga qarshi kurashish xartiyasi»ga a’zo bo‘lgan tadbirkorlar soni **1 000** tagacha yetkazish;
- ✓ Nodavlat notijorat tashkilotlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish mavzularida har yili kamida **3 mlrd so‘mlik** grantlar va ijtimoiy buyurtmalar e’lon qilib borish.

VI. Loyihani amalga oshirishning moliyaviy xarajatlari

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2025–2026 yillarga mo‘ljallangan Chora-tadbirlar dasturida belgilangan topshiriqlar ijrosi uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar davlat budjetidan har bir ijrochiga ajratilgan umumiy mablag‘lar doirasida amalga oshiriladi.

Shuningdek, har bir chora-tadbirni moliyalashtirish manbasi va sarflanadigan summa Chora-tadbir dasturining 3-ustunida belgilangan.

Xususan, Chora-tadbirlar dasturida belgilagan vazifalarning ijrosini ta’minlash uchun o‘rtacha hisobda 85 mlrd 630 mln so‘m mablag‘lar ajratish rejalashtirilgan.

V. Kutilayotgan natija

Chora-tadbirlar dasturining qabul qilinishi natijasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi maqsad va ustuvor vazifalar aniq belgilanadi.

xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston o‘rini yaxshilash bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar aks ettiriladi.

BMT Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasi talablari va Xalqaro tashkilotlar tavsiyalarining ijro etilishi ta’minlanadi.

korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo‘yicha preventiv mexanizmlar yaratiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2025–2026 yillarga mo‘ljallangan
Chora-tadbirlar dasturi

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbai	Mas’ul ijrochilar	Takliflarning asosliligi
I. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaga imkon berayotgan shart-sharoitlar va omillarni bartaraf etish						
1.	Korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan sohalarda korrupsiya omillarini aniqlash va bartaraf etish choralarini ko‘rish.	Quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish: davlat organlarining mas’ul xodimlari, deputat va senatorlar, shu jumladan, xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda har chorakda kamida 3 ta sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, korrupsiyaga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan o‘rganishlar o‘tkazish; o‘rganish natijalari yuzasidan aniqlangan korrupsiya omillarini bartaraf etishga qaratilgan “Yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqish; “Yo‘l xaritalari” ijrosini Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashida muhokama qilib borish.	Har chorakda	–	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Hisob palatasi, manfaatdor vazirlik va idoralar	Korrupsiyaga oid jinoyatchilik statistikasiga ko‘ra ta’lim (654 nafar), sog‘liqni saqlash (342 nafar), bandlik (202 nafar), mahalliy hokimliklar (106 nafar), kadastr (68 nafar), bank (271 nafar) va kommunal xizmatlar sohalarida (159 nafar) eng ko‘p korrupsiya jinoyatlari sodir etilmoqda. Shunga asosan korrupsiya xavf-xatarlari yuqori bo‘lgan mazkur sohalarda, korrupsiya omillarini chuqur o‘rganib ularni barataraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishi lozim. “Ijtimoiy fikr” markazi tomonidan 2025 yil 2-11-aprel kunlari 1425 nafar respondent ishtirokida “Fuqarolar O‘zbekistonda korrupsiya to‘g‘risida” nomli ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazildi.

						So‘rovnoma So‘ronomalarga ko‘ra sog‘liqni saqlash (57,3%) va ta’lim (38,6%) korrupsiyaga ijtimoiy moyillikning asosiy sohalari sifatida qayd etildi, keyingi o‘rinlarni davlat boshqaruvi (33,1%) va iqtisodiyot (30,0%) egalladi.
2.	Davlat organlari va tashkilotlariga manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishda uslubiy ko‘maklashish.	Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha davlat organlari xodimlari uchun xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda o‘quv-seminarlar tashkil qilish; manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha davlat organlari xodimlari uchun o‘quv-seminarlar kontentlarini yaratish; mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma, ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar va manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reyestrini to‘g‘ri yuritishga ko‘maklashish.	2026 yil yanvar-iyun	Ijrochilar mablag‘lari ***(10 mln so‘m)***	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar	Hisob palatasining 2024 yil faoliyati bo‘yicha hisobotida (49-50 betlari) Davlat xaridlari sohasida o‘tkazilgan tahlillar natijasida ko‘plab tizimli kamchiliklar aniqlanganligi, xususan ayrim shartnomalar qonun talablariga zid ravishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzilgani, manfaatlar to‘qnashuvi sharoitida amalga oshirilgani, hamda muddati o‘tgan soliq qarzi bo‘lgan tashkilotlar bilan hamkorlik qilingan holatlar aniqlanganligi bayon etilgan, shuningdek davlat buyurtmachilarining 348 mlrd so‘mlik 7,1 mingta shartnomalarida manfaatlar to‘qnashuvi holatlariga yo‘l qo‘yilgan. https://back.ach.gov.uz/media/legal/68d904a935aaeb0d90f1a7b4/file_47bf4735f0071a6466ca72ad.pdf
3.	“E-anticor.uz” elektron platformasida manfaatlar	“E-anticor.uz” elektron platformasida manfaatlar to‘qnashuvi	2026 yil aprel	–	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi,	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston

	to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlarni aniqlash va onlayn monitoring qilish tartibini belgilash.	bilan bog‘liq holatlarni aniqlash va onlayn monitoring qilish hamda elektron platformadan foydalanish tartibini belgilovchi idoraviy hujjatni ishlab chiqish va tasdiqlash.			Adliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar	Respublikasining «Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida»gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-210-son qaroriga asosan «E-anticor.uz» elektron platformasida manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlarni aniqlash va onlayn monitoring qilish imkonini beruvchi elektron modulni ishga tushirish belgilangan. Biroq ushbu elektron platformadan foydalanish tartibi bo‘yicha idoraviy hujjat ishlab chiqilmagan.
4.	Korrupsiyaga qarshi kurashishda parlament nazorati mexanizmlarini takomillashtirish.	Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарида ва халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар Кенгашларида давлат ташкилотлари ва уларнинг ҳудудий бўлинмалари раҳбарлари ҳамда маҳаллий ҳокимликларнинг “коррупциядан ҳоли соҳа (ҳудуд)”га айлантириш юзасидан ахборотларини эшитиб бориш амалиётини йўлга қўйиш.	Har yarim yilda	–	Oliy Majlis palatalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi	“Ijtimoiy fikr” markazi tomonidan 2025 yil 2-11-aprel kunlari 1425 nafar respondent ishtirokida “Fuqarolar O‘zbekistonda korrupsiya to‘g‘risida” nomli ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra Toshkent, shahrida hamda Jizzax, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida korrupsiya masalasi dolzarb ahamiyatga egaligi. Surxondaryo, Samarqand, Buxoro, Namangan va Qashqadaryo viloyatlarida fuqarolar korrupsiya holatlariga

						nisbatan kamroq duch kelishayotganligi qayd etilgan.
II. Davlat fuqarolik xizmati sohasida korrupsiyaning oldini olish						
5.	Davlat xizmatchilarining odob-axloq kodeksini qabul qilish bo‘yicha taklif ishlab chiqish.	Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq kodeksi loyihasini ishlab chiqish masalalasini manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda tahlil qilish va takliflar ishlab chiqish.	2026 yil sentabr	–	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi, Adliya vazirligi	Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 15 oktabrdagi 595-son qarori bilan “Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari” tasdiqlangan. Mazkur odob axloq qoidalarida umumiy normalar belgilanib, davlat xizmatchisi tomonidan odob- axloq qoidalariga rioya qilinishini doimiy nazorat qilish kabi masalalar ochiq qolgan. Xususan, mazkur odob-axloq qoidalarida Odob-axloq komissiyasi qachonki davlat xizmatchisi odob axloq qoidalarini buzgan taqdirda ma’lum bir harakatlarni amalga oshirishi mumkin, ya’ni uning oqibatlari bilan kurashiladi, lekin oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rilmaydi. Shuningdek, har bir davlat organi tarkibida odob-axloq komissiyasini tuzish belgilangan, biroq, respublika darajasida davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalariga rioya etilishini tashqi nazorat qilish mexanizmlari yaratilmagan.
6.	Davlat xizmatchilarining xorijda hisobraqamlar ochish va egalik qilish, naqd pul mablag‘larini saqlash,	Quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish: cheklov o‘rnatilgan davlat	2026 yil noyabr	–	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi PF-6257-son Farmonida 2022 yil 1 yanvardan boshlab davlat

	ko‘chmas va boshqa mol-mulkka ega bo‘lishiga oid cheklov o‘rnatishning aniq tartibini ishlab chiqish.	xizmatchilarining aniq toifasi; taqiq o‘rnatilgan moliyaviy vositalar va mol-mulklar ro‘yxati; taqiqqa rioya etilishini tekshirish tartibi va uni buzganlik uchun javobgarlik choralarini nazarda tutish.			Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi	xizmatchilariga respublika hududidan tashqarida hisob raqamlar ochish va egalik qilish, naqd pul mablag‘larini saqlash, ko‘chmas va boshqa mol-mulkka ega bo‘lish taqiqlangan. Biroq, mazkur tartib aniq qonun hujjati bilan tartibga solinmagan.
III. Davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, jamoatchilik oldida hisobdorligini oshirish						
7.	Tuman (shahar) hokimliklarida ochiqlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini yanada oshirish.	Ochiqlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksini tuman (shahar) hokimliklarida joriy etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-son Farmoniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqib, belgilangan tartibda kiritish.	2026 yil may	–	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi PF–154-son Farmoniga muvofiq, davlat organlari va tashkilotlarining “Ochiqlik indeksi”ni baholash tizimi joriy etilgan. “Ochiqlik indeksi”ni baholash doirasiga respublika darajadagi davlat organlari va tashkilotlari, viloyat hokimliklari qamrab olingan. Baholash tizimining joriy etilishi, budjet mablag‘larining sarflanishi ustidan samarali jamoatchilik nazorati o‘rnatish, davlat xaridlarining ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida o‘tkazish hamda davlat xizmatchilarida fuqarolar oldida hisobdorlik madaniyatini yanada yuksaltirish imkonini bermoqda. Biroq bugungi kunda ochiqlik indeksi tuman, shahar darajasida joriy etilmagan.
8.	Davlat organlarining faoliyati ochiqligi bo‘yicha	Davlat organlari ochiqligi bo‘yicha reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar tajribalarini	2026 yil aprel	-	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi,	O‘zbekiston Respublikasi xalqaro indekslardagi (“Budjet ochiqligi indeksi” hamda “Open

	ilg‘or xorijiy tajribani milliy qonunchilikka tatbiq etish.	yaqindan o‘rganish maqsadida “Budjet ochiqligi indeksi” bo‘yicha Gruziya hamda “Open data barometr” indeksi bo‘yicha Janubiy Koreya Respublikasi tajribasi asosida takliflar ishlab chiqish.			Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi	data barometr”) o‘rnini yaxshilash bo‘yicha xorijiy ilg‘or davlatlar tajribasini o‘rgangan holda milliy qonunchilikka implementatsiya qilish imkoniyatlarini o‘rganish taqozo etilmoqda.
IV. Korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional asoslarini yanada takomillashtirish						
9.	Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil qilish bo‘yicha “Xavf-tahlil markazi”ni tashkil etish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzilmasida belgilangan shtat birliklari doirasida xavflarni baholash orqali korrupsiya xavfi yuqori bo‘lgan soha, hudud, davlat organi va lavozimlar kesimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil qilish imkonini beruvchi “Xavf-tahlil markazi” faoliyatini yo‘lga qo‘yish. Xavf-tahlil markazida: davlat organlarida yaqin qarindoshlarning birga ishlashi va davlat xizmatchisining tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishini aniqlash; davlat xaridlari elektron axborot tizimidagi qonunbuzilishi holatlarining oldini olish; korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash; davlat organlari funksiyalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash; korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari bilan real vaqt rejimida	2026 yil mart	Ijrochilar mablag‘lari ***(64 mlrd so‘m)***	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Hisob palatasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Bojxona qo‘mitasi	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligida davlat organlari va tashkilotlarning ma’lumot bazalaridan foydalangan holda soha va tarmoqlar bo‘yicha korrupsiya xavf-xatarlarini tahlil qilishga mo‘ljallangan “Xavf-tahlil markazi”ni tashkil etish korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyatini beradi. Shuningdek zamonaviy sun’iy intellekt texnologiyalarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga tatbiq etish bilan shug‘ullanuvchi yagona markaz yaratiladi.

		axborot almashish imkoniyatini yaratish.				
10.	Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlarining maishiy va tizimli korrupsiyaviy omillarga qarshi kurashish borasidagi ishlari samaradorligini oshirish.	1. Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari tomonidan Ishchi guruhlar tuzish. 2. Ishchi guruhi tomonidan har chorakda kamida bitta sohada korrupsiyaviy holatlarni o‘rganib, tahlil qilish. 3. Tahlil natijalari yuzasidan korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, qonun ustuvorligi, jazo muqarrarligini ta’minlash bo‘yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashiga taklif kiritish.	Har chorakda	–	Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari, vazirlik va idoralarning hududiy bo‘linmalari	Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining Davlat rahbari ishtirokidagi joriy yilning 5 mart kuni o‘tkazilgan yig‘ilishida berilgan topshiriq ijrosini ta’minlash yuzasidan kiritilmoqda
V. Korrupsiya jinoyatlari uchun javobgarlikning muqararligini ta’minlash, jinoyat ishini yuritishda korrupsiya xavf-xatarlarining oldini olish						
11.	Korrupsiyaga oid jinoyatlar sabablarini aniqlash hamda jinoyatchilik statistikasini yuritish tizimini takomillashtirish.	Korrupsiyaviy jinoyatlar statistikasini yuritishga mo‘ljallangan dasturiy ta’minot yaratish. Bunda quyidagilarni nazarda tutish: korrupsiyaviy jinoyatlar va ular natijasida yetkazilgan zararlar hisobini yuritish; korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilishi sabablari aniqlash; davlat xizmatchisining xizmat qilgan sohasi bo‘yicha ichki nazorat tuzilmasi tomonidan jinoyatning sodir etilishiga sabab bo‘lgan omillar o‘rganilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilash;	2026 yil iyun	-	Ichki ishlar vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Oliy sud	Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Istanbul harakatlar rejasi 5-bosqich monitoringida bo‘yicha mazkur takliflar bildirilgan. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/ru/publications/reports/2024/11/baseline-report-of-the-fifth-round-of-monitoring-of-anti-corruption-reforms-in-uzbekistan_a7d9ab4c/0c24d6de-ru.pdf

		sudlar tomonidan qabul qilingan qarorlarning yuqori turuvchi sud va prokurorlar tomonidan respublikaning barcha hududlari bo‘yicha onlayn rejimda monitoring qilish imkoniyatini yaratish; yil davomida sudlar tomonidan javobgarlikka tortilgan shaxslar va ularga nisbatan qo‘llangan jazo choralari to‘g‘risidagi Jinoyat kodeksi moddalari bo‘yicha statistik ma’lumotlarni hududlar va sohalar kesimida shakllantirish.				
12.	Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishda sudyalar mustaqilligining kafolatlarini mustahkamlash.	Quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish: sudyalarni intizomiy javobgarlikka tortishning aniq mezonlari va tartibini belgilash, uning xolisligini va sudyaning huquqlari lozim darajada himoya qilinishini ta’minlash; sudyalarga nisbatan chiqarilgan intizomiy qarorlar, shu jumladan, Sudyalar oliy kengashining qarorlari ustidan sud tartibida shikoyat qilishning tartibi va muddatlarini aniq belgilash.	2026 yil sentabr	–	Oliy sud, Sudyalar oliy kengashi, Bosh prokuratura, Adliya vazirligi	Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Istanbul harakatlar rejasi 5-bosqich monitoringida Sudyalar mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha mazkur takliflar bildirilgan. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/ru/publications/reports/2024/11/baseline-report-of-the-fifth-round-of-monitoring-of-anti-corruption-reforms-in-uzbekistan_a7d9ab4c/0c24d6de-ru.pdf
VI. Alohida soha va tarmoqlarda halollikni ta’minlash va korrupsiya holatlarini kamaytirish						
13.	Давлат харидлари иштирокчиларининг бенефитсиар мулкдорлари тўғрисидаги маълумотларни мажбурий	1. Yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan (qayta ro‘yxatdan) o‘tkazish jarayonida benefitsiar mulkdorlar haqidagi ma’lumotlarni taqdim etishni O‘zbekiston	2026 yil iyul	–	Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha **2023-2024 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi 11-bandida** korrupsiyaga oid huquqbuzarlik

	ошкор этиш тизимини жорий этиш.	Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida majburiy kiritish mexanizmini joriy qilish. 2. Ushbu ma’lumotlar asosida benefitsiar mulkdorlar reyestrini shakllantirish va yuritish. 3. Benefitsiar mulkdorlar reyestrini davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portali orqali davlat xaridlari elektron tizimlariga integratsiya qilish. 4. Davlat xaridlarida ishtirok etuvchi yuridik shaxslarga ularning benefitsiar mulkdorlari haqidagi ma’lumotlarni portalga kiritishni majburiy tartibini belgilash.				sodir etgan yoki manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ygan davlat xaridi ishtirokchisi bo‘lgan yuridik shaxsning boshqaruvidagi yoki benefitsiar ta’sischiligida bo‘lgan boshqa yuridik shaxslarning davlat xarididagi ishtirokini cheklash vazifasi belgilangan edi. Lekin, topshiriqni ijro qilish davomida yuridik shaxslarning benefitsiar mulkdorlar haqidagi ma’lumotlarning oshkor qilish tizimi yo‘qligi sababli ushbu topshriqni to‘liq ijrosi ta’minlanmasdan qoldi. Shunga asosan 2023-2024 yil davlat dasturi 11-bandini to‘liq ijrosi ta’minlash uchun ushbu topshiriq kiritilmoqda.
14.	Davlat xaridlarida qonun buzilishi holatlarini aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha elektron platformani ishga tushirish.	1. Sun’iy intellekt yordamida davlat xaridlarida qonunga zid holatlarni aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha elektron tizim dasturiy ta’minotini yaratish. 2. Elektron tizimni Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo‘mitasi, Boshqaruv samaradorligi agentligi, Elektron savdo operatorlarining tegishli axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishini ta’minlash.	2026 yil dekabr	Ijrochilar mablag‘lari ***(10 mlrd)***	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Adliya vazirligi, Milliy statistika qo‘mitasi, Elektron savdo operatorlari,	Milliy ma’ruzaning 8-paragrafida (34-varaq) davlat xaridlari sohasida amalga oshirilayotgan ishlarga qaramasdan qonunbuzilishi holatlari korrupsiya xavf-xatarlari yuqoriligicha saqlanib qolayotganligi, 2018 - 2024 yillarda davlat xaridlarini amalga oshirishda sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlar uchun 791 nafar shaxs jinoiy

					manfaatdor vazirlik va idoralar	javobgarlikka tortilganligi bayon etilgan. Shunga asosan davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida qonunbuzilishi holatlarining oldini olish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2025-2026 yillarga mo‘ljallangan chora tadbirlar dasturinining 14-bandida Sun’iy intellekt yordamida davlat xaridlarida qonunga zid holatlarni aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha elektron tizim dasturiy ta’minotini yaratish bo‘yicha topshiriq belgilandi.
15.	Sog‘liqni saqlash sohasida aholiga davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq jarayonlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish.	Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimida korrupsiya xavfi yuqori bo‘lgan tartib va xizmat turlarini davlat xizmatlari markazlariga o‘tkazish, shuningdek, ayrim funksiyalarni xususiy sektorga o‘tkazish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish.	2025 yil dekabr	–	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Adliya vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi 2024 yildagi faoliyati bo‘yicha hisobotda Agentlik tomonidan o‘tkazilgan o‘rganishlarda sog‘liqni saqlash sohasida ishga qabul qilishda shaffof tizim yaratilmaganligi, tibbiyot muassasalarida budjet mablag‘larining talon-toroj qilinayotganligi, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘yilayotganligi bayon etilgan. https://aca.uz/storage/RqmwTntfrqCuv70brYhAiASIs2Xxqe-meta0JDQs9C10L3RgtC70LjQuiAyMDI0INC50LjQuy5wZGY=-.pdf

16.	Ilmiy daraja olish bilan bog‘liq jarayonlardagi korrupsiyaga imkon berayotgan omillarni bartaraf etish.	Falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish bilan bog‘liq jarayonlardagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil qilish. Bunda: ilmiy daraja berishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish; ilmiy daraja berish bilan bog‘liq jarayonlarni raqamlashtirish darajasiga baho berish; sohada ochiq va shaffoflikni hamda jamoatchilik nazoratini ta’minlash holatini o‘rganish; tahlillar yakuni bo‘yicha korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish.	2026 yil fevral	–	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi	Falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish bilan bog‘liq jarayonlardagi korrupsiya xavf-xatarlar tahlil qilinib, ilmiy rahbarlar shogirdlar sonining belgilangan meyordan ortiqligi, ilmiy ishlarda ko‘chirmachilikka yo‘l qo‘yilayotganligi, tanish-bilishchilik imkon berayotgan shart-sharoitlar, ilmiy daraja berish tizimida nazorat va javobgarlik mexanizmlari yaratilmaganligi, raqamlashtirish darajasining pastligi qonun buzilish holatlariga imkoniyat yaratib berayotganligi aniqlangan. (20.02.2024 yil 01-10-01/1041-sonli xat)
17.	Oliy ta’lim tashkilotlari talabalari ongiga korrupsiyaga sezgirlik va korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillarini singdirish hamda bu borada tushuntirish ishlarini amalga oshirish.	1. Oliy ta’lim tashkilotlari talabalari ongiga korrupsiyaga sezgirlik va korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillarini singdirish hamda bu borada tushuntirish ishlarini amalga oshirish maqsadida maxsus kurslar tashkil etish. 2. Oliy ta’lim tashkilotlarida davra suhbatlari, uchrashuv va seminarlar o‘tkazish.	2026 yil mart-aprel	–	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi	Interaktiv bozor munosabatlari va zamonaviy davlat xizmatiga kirish bosqichida bo‘lgan fuqarolar (talabalar) bozor va davlat xizmatlari sohasida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid amaliyot va islohotlardan xabardor bo‘lishi va unga qarshi kurashishga oid malakasi shakllangan bo‘lishi uchun ta’lim bosqichida hayotiy kompetensiya (sof skills) sifatida shakllantirish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, O‘zbekiston

						Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024 yil faoliyati bo‘yicha hisobotida (21.01.2025 yildagi 19/2-300231-24-son xat) oliy ta’lim sohasida korrupsiya xavf xatarlari tahlil qilinib, oliy ta’lim soxasida aniqlangan qonun buzilishi holatlarini bartaraf etish buyicha tegishli idoralarga 251 ta taqdimnoma kiritilgan, 476 ta noqonuniy hujjatlar qonunga muvofiqlashtirilgan, 34 tasi esa bekor qilingan, 560 nafar shaxs intizomiy va ma’muriy javobgarlikka tortilgan, 67 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan.
18.	“Yashirin iqtisodiyot” darajasini minimallashtirish maqsadida naqd pulsiz hisob-kitoblar ko‘lamini kengaytirish.	Naqd pulsiz hisob-kitoblar ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish: QR-kodlar va “NFS” texnologiyalari orqali to‘lovlardan foydalanishni ommalashtirish, jumladan, 2026 yil yanvar oyiga qadar barcha savdo, xizmat ko‘rsatish hamda umumiy ovqatlanish korxonalarida to‘lovlarni naqd pulsiz QR-kodlar tizimi orqali amalga oshirish imkoniyatini ta’minlash; chakana savdo, umumiy ovqatlanish va boshqa xizmat ko‘rsatish sohasidagi tadbirkorlik subyektlarida tovar (xizmat)lar hisobini yuritishning avtomatlashtirilgan qurilmalari (R-keeper) o‘rnatilishini	2026 yil aprel	–	Markaziy bank, Soliq qo‘mitasi, Savdo-sanoat palatasi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Iqtisodiyot va moliya vazirligi	“Yashirin iqtisodiyot” darajasini minimallashtirish hozirgi vaqtdagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024 yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida xizmatlar, qurilish, sanoat sohalarida o‘nlab trillion so‘mlik mahsulot “soya”da qolayotganligi, bu orqali yalpi ichki mahsulotga 135 trillion so‘m, budjetga 30 trillion so‘m tushum yo‘qotilayotganligi alohida ta’kidlab o‘tildi.

		rag‘batlantirish hamda mazkur tizimlarni bosqichma-bosqich 3 pog‘onali (onlayn NKM, bank hisobraqam va to‘lov operatorlari) integratsiyalash; ushbu tizimlardan foydalanish holati hamda tizim faoliyatining uzluksizligi ustidan nazorat tadbirlarini kuchaytirish; naqd pulsiz hisob-kitoblardan foydalanishning afzalliklari, shuningdek, yaratilgan imkoniyatlar bo‘yicha aholi va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish.				
19.	“O‘zbekiston biznesining korrupsiyaga qarshi kurashish xartiyasi”ga tadbirkorlik subyektlarining a’zo bo‘lishini rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish.	1. Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingida qo‘shimcha ball beruvchi ko‘rsatkichlarga “O‘zbekiston biznesining korrupsiyaga qarshi kurashish xartiyasi”ga (keyingi o‘rinlarda – Xartiya) a’zolikni kiritish. 2. “O‘zbekiston biznesining korrupsiyaga qarshi kurashish xartiyasi” elektron platformasini ishlab chiqish. Platformada: tadbirkorlarning Xartiyaga a’zolik bo‘yicha arizalarini qabul qilish, ko‘rib chiqish va a’zolik sertifikatini taqdim etish; Xartiya a’zolari uchun vujudga kelgan korrupsiya holatlari bo‘yicha ma’lumot berish va korrupsiyani keltirib chiquvchi omillarni bartaraf	2026 yil avgust	Ijrochilar mablag‘lari ***(150 mln so‘m)***	Savdo-sanoat palatasi, Biznes-ombudsman, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi	Tadbirkorlik subyektlari tomonidan biznes yuritishda korrupsiya holatlarining oldini olish mexanizmlarini joriy etish va ushbu yo‘nalishdagi faol tashabbuslarni rag‘batlantirish jarayonlarida bir qancha kamchiliklar mavjud. Jumladan, tadbirkorlik subyektlari korporativ boshqaruvida samarali korrupsiyaga qarshi menejmentni joriy etish bo‘yicha standartlar va tajribalardan bexabar qolmoqda, natijada xodimlar tomonidan tadbirkorlik subyektning ishbilarmonlik obro‘siga putur keltirishi mumkin bo‘lgan korrupsiya va yashirin iqtisodiyot xavfi saqlanib qolmoqda. Ikkinchidan, tadbirkorlik subyektlarida korrupsiyaga qarshi

		etish borasida o‘z takliflarini taqdim etish; Xartiya a’zolarining yagona elektron reyestrini yuritish va a’zolar uchun muhokama maydonlarini tashkil etish; Xartiya qoidalarining bajarilishini va ko‘rsatmalarning korxonalar faoliyatida tatbiq etilishi ustidan doimiy monitoring olib borish imkoniyatlarini yaratish.				menejment standartlarini joriy etish, ushbu yo‘nalishda boshqa hamkorlar, jamoatchilik nazorati vakillari hamda davlat organlari bilan hamkorlik darajasi pastligicha qolmoqda. Shu sababli, tadbirkorlik subyektlarining ushbu yo‘nalishdagi hamkorligini ta’minlovchi samarali institutsional tuzilmalari va ijtimoiy reklamalarga ehtiyoj mavjud. O‘z navbatida, ijtimoiy reklamalar yaratishda ijobiy tajriba va yutuqlarni namoyish qilish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o‘zaro “samarali muloqot” va “ijobiy hamkorlik” muhitini yaratishda korrupsiyaga qarshi kurashish xartiyasiga ixtiyoriy ravishda a’zo bo‘luvchi tadbirkorlar sonini oshirishga zarur. Bunda tadbirkorlarga Xartiyaga a’zo bo‘lishning afzalliklarini yoritib berish, ya’ni ularning keng jamoatchilik va biznes hamjamiyatida obro‘sini oshishi, yangi hamkorlik va shartnomalar uchun imkonlar yaratilishi, xartiya talablariga qat’iy rioya qilish orqali kompaniyalarning barqaror va ishonchli hamkor sifatida tan olinishga sabab bo‘la olishligi haqida bilim va ko‘nikmalarini oshirish hamda Xartiya talablariga to‘laqonli amal qilib kelayotgan

						tadbirkorlarni rag‘batlantirish lozim.
20.	Хусусий секторда коррупцияга қарши курашиш механизмларини такомиллаштириш.	1. Korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini o‘z tizimiga samarali joriy etgan tadbirkorlik subyektlari uchun “Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha yilning eng yaxshi kompaniyasi” yillik mukofotini joriy qilish. 2. Korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillariga sodiqligini tasdiqlovchi kompaniyalar o‘zlarining reklama va veb-saytlarida foydalanishlari mumkin bo‘lgan maxsus belgi yoki sertifikat namunasini yaratish. 3. O‘zbekiston biznes hamjamiyatida halollik forumini muntazam tashkil qilib borish. 4. Xususiy sektorda korrupsiyaning oldini olish natijasida erishiladigan natijalar to‘g‘risida targ‘ibot materiallari tayyorlash.	2026 yil oktabr 2026 yil noyabr 2025–2026 yillar	-	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Savdo-sanoat palatasi, Biznes-ombudsman	Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Istanbul harakatlar rejasi 5-bosqich monitoringida mazkur takliflar bildirilgan. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/ru/publications/reports/2024/11/baseline-report-of-the-fifth-round-of-monitoring-of-anti-corruption-reforms-in-uzbekistan_a7d9ab4c/0c24d6de-ru.pdf
21.	Davlat mulkidan foydalanish qoidalari va davlat mulkini boshqarish samaradorligini baholash tartibini ishlab chiqish.	Quyidagilarni nazarda tutuvchi idoraviy hujjat loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash: davlat mulkidan foydalanish qoidalari; davlat mulkini boshqarish samaradorligini baholash tartibi; davlat organlari va tashkilotlarining davlat mulkidan foydalanish qoidalariga rioya etishi va davlat mulkidan foydalanish samaradorligini baholash natijalarini OAV va vakolatli	2026 yil yanvar	–	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Adliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar	“Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonunning 22-moddasida Davlat aktivlarini boshqarish agentligi davlat mulkidan foydalanish qoidalarini va davlat mulkini boshqarish samaradorligini baholash tartibini belgilashi to‘g‘risida qoida aks ettirilgan. Biroq, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan mazkur qoidalar va tartiblar belgilanmagan. Shuningdek, baholash natijalarini jamoatchilik uchun ochiqligini

		davlat organining rasmiy veb-saytida e’lon qilib borish mexanizmini belgilash.				ta’minlash mexanizmlari ishlab chiqilmagan.
VII. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish						
22.	Yoshlar o‘rtasida, ayniqsa, oila, mahalla, ta’lim tashkilotidan boshlab korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish.	Quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish: ta’lim dasturlariga BMTning Korrupsiyaga qarshi ta’lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi (GRACE) dasturi doirasida bolalarga tarbiya berish yo‘nalishini kengaytirish; doimiy ravishda multiplikatsion materiallarni yaratib, Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi orqali keng targ‘ib qilish; Yoshlar o‘rtasida korrupsiya “jamiyat tanasidagi saraton” ekanligini targ‘ib qilishga qaratilgan o‘quv materiallari tayyorlash.	2026 yil mart	Ijrochilar mablag‘lari	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Adliya vazirligi, Korrupsiya qarshi kurashish agentligi	Yoshlar o‘rtasida, ayniqsa, oila, mahalla, ta’lim tashkilotidan boshlab, bu illatga murosasiz munosabatni shakllantirishga e’tibor berilmayapti. Maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’lim muassasalarida yosh avlod ongiga halollik qadriyatlarini singdirish masalalari ta’lim dasturlariga kiritilmagan.
		“Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasida aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini doimiy oshirib borish.	2025–2026 yillar davomida	Ijrochilar mablag‘lari ***(8 mlrd so‘m)***	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi	
23.	Aholida korrupsiyaga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, yosh avlod ongiga halollik qadriyatlarini singdirishda spektakl hamda kino	Davlat teatrlarida sahnalashtiriladigan spektakllar va Kinematografiya agentligi tomonidan suratga olinadigan kino mahsulotlarida aholida korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni	2026 yil davomida	Ijrochilar mablag‘lari, xalqaro moliya institutlari grant mablag‘lari ***(200 mln so‘m)***	Madaniyat vazirligi, Kinematografiya agentligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi	Yoshlar o‘rtasida, ayniqsa, oila, mahalla, ta’lim tashkilotidan boshlab, bu illatga murosasiz munosabatni shakllantirishga e’tibor berilmayapti. Maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’lim muassasalarida yosh

	mahsulotlardan maqsadli foydalanish.	shakllantirishga qaratilgan g‘oyalarni kiritib borish.				avlod ongiga halollik qadriyatlarini singdirish masalalari ta’lim dasturlariga kiritilmagan.
24.	Fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi faoliyatidagi ishtirokini kengaytirish va samaradorligini oshirish.	1. Nodavlat notijorat tashkilotlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish mavzularida grantlar va ijtimoiy buyurtmalar e’lon qilib borish. 2. Fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi faoliyatidagi ishtiroki yuzasidan yillik hisobotni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashiga kiritish.	Yil davomida 2026 yil aprel	Ijrochilar mablag‘lari, xalqaro moliya institutlari grant mablag‘lari ***(3 mlrd so‘m)***	Oliy Majlis palatalari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi	Jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi asosiy subyektlar fuqarolik jamiyati institutlari hisoblanadi, afsuski bizda korrupsiyaga qarshi jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi fuqarolik jamiyati institutlar, jumladan nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati yetarli darajada tashkil etilmagan. Rossiyaning Transparency International NNT tomonidan tayyorlagan BMT korrupsiyaga qarshi konvensiyasi ijrosi bo‘yicha fuqorolik jamiyati hisobotida O‘zbekistonda Nodavlat notijorat tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashda yetarlicha faollik ko‘rsatmayotganliklari tanqid qilingan. https://uncaccoalition.org/wp-content/uploads/FINAL-Russian-version-Civil-society-report-on-UNCAC-implementation-Uzbekistan-Uzbek-Forum-for-Human-Rights-TI-Russia-UNCAC-Coalition-09.06.2022.pdf
25.	Fuqarolik jamiyati institutlari va OAVning korrupsiyaga qarshi kurashish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo‘yicha bilim va malakasini oshirish.	1. Ommaviy axborot vositalari vakillari uchun surishtiruv jurnalistikasi, tahliliy tadqiqotlar o‘tkazish borasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan o‘quv kurslarini tashkil qilish va tizimli o‘tkazish.	2025 yil doimiy	Ijrochilar mablag‘lari, xalqaro moliya institutlari grant mablag‘lari ***(100 mln so‘m)***	Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy	Hozirda O‘zbekistonda korrupsiya holatlari bo‘yicha jurnalistik surishtiruvlarini o‘tkazish amaliyoti deyarli mavjud emas. Xorijiy davlatlar tajribasida bu amaliyot rivojlangan bo‘lib, tajribali

		2. Nodavlat notijorat tashkilotlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi milliy qonunchilik, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, IHTTning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Istanbul harakatlar rejasida o‘rnatilgan qoidalar bilan ishlash, monitoring o‘tkazish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida seminar, trening va o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazib borish.			kommunikatsiyalar universiteti, Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi	jurnalistlar tekshiruvlari asosida korrupsiyaga aloqador bir qator mansabdor shaxslarning jinoyatlari fosh etilib, javobgarlikning muqarrarligi ta’minlangan. Shu sababdan ham korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazorati mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi
26.	Milliy strategiya va davlat dasturlari ijrosini monitoring qilib borish bo‘yicha elektron platformani ishga tushirish.	Elektron platformaga Milliy strategiya va davlat dasturlarining ijrosi yuzasidan ma’lumotlarni kiritib borish va ushbu ma’lumotlarning keng jamoatchilik uchun ochiqligini ta’minlash, shuningdek, platformada Milliy strategiya va davlat dasturlari ijrosi bo‘yicha taklif va tavsiyalarni qoldirish imkonini yaratish.	2026 yil sentabr	Xalqaro moliya institutlari grant mablag‘lari ***(180 mln so‘m)***	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar	O‘tgan davr mobaynida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini belgilab beruvchi 4 ta davlat dasturi qabul qilingan. Lekin mazkur davlat dasturlari ijrosini monitoring qilish va natijalarini jamoatchilikka e’lon qilish bo‘yicha platforma yaratilmagan. Bundan tashqari Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Istanbul harakatlar rejasi monitoringi davomida siyosat hujjatlarini ishlab chiqish va ijrosi ta’minlanganlik darajasi baholanadi. Bunda siyosat hujjatlari ijrosini ko‘rsatib beruvchi platformaning mavjudligi ushbu yo‘nalish baholanganda ijobiy natija qayd etishga xizmat qiladi.